

KAMOL-QOZI MADRASASI TARIXI VA UNI O'ZIGA XOS JIHATLARI (1910–2000-YILLAR MISOLIDA)

Maxmudov Mansurjon

University of Business and Science,

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zganboyeva Mushtariy Qosimjon qizi

University of Business and Science,

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar fakulteti,

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Qo`qon shahridagi Kamol-Qozi madrasasining 1910–2000-yillardagi tarixiy evolyutsiyasi hamda uning o'ziga xos me'moriy, ma'rifiy va ijtimoiy jihatlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada madrasaning Rossiya imperiyasi davridagi faoliyatidan boshlab, sovet tuzumi ostidagi transformatsiyasi va mustaqillik davridagi qayta tiklanish jarayonlarigacha bo'lgan yo'li yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kamol-Qozi madrasasi, Qo`qon, Rossiya imperiyasi, islom ta'limi, me'moriy meros, sovetlashtirish, madrasa tarixi, madaniy meros

ИСТОРИЯ МЕДРЕСА КАМОЛ-КАЗИ И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ (НА ПРИМЕРЕ 1910–2000 ГОДОВ)

Махмудов Мансуржон

Университет бизнеса и науки,

Факультет социальных наук и цифровых технологий,

Доцент кафедры социальных наук, доктор философии по истории,

(PhD)

Узганбоева Муштарий Косимжон кизи

Университет бизнеса и науки,

Факультет социальных наук и цифровых технологий,

Студент 3 курса

Аннотация: Статья посвящена комплексному анализу исторического развития медресе Камол-кази в городе Коканде в 1910–2000-х годах, его архитектурного, образовательного и социального значения. В статье рассматривается история медресе от периода Российской империи до его трансформации в советскую эпоху и процессы реставрации в период независимости.

Ключевые слова: медресе Камол-кази, Коканд, Российская империя, исламское образование, архитектурное наследие, советизация, история медресе, культурное наследие

HISTORY OF KAMOL-KAZI MADRAS AND ITS CHARACTERISTICS (IN THE EXAMPLE OF 1910–2000)

Makhmudov Mansurjon

University of Business and Science,

Faculty of Social Sciences and Digital Technologies,

Associate Professor of the Department of Social Sciences, Doctor of

Philosophy in History (PhD)

Uzganboyeva Mushtariy Qosimjon qizi

University of Business and Science,

Faculty of Social Sciences and Digital Technologies,

3rd year student

Abstract: This article is devoted to a comprehensive analysis of the historical evolution of the Kamol-Kazi Madrasah in the city of Kokand in the 1910s–2000s and its unique architectural, educational and social aspects. The article covers the path of the madrasah from its activities during the Russian Empire to its transformation under the Soviet regime and the processes of restoration during the period of independence.

Keywords: Kamol-Kazi Madrasah, Kokand, Russian Empire, Islamic education, architectural heritage, Sovietization, history of the madrasah, cultural heritage

Kirish. XX asr O`rta Osiyo madaniyati va ta`lim tizimi tarixda chuqur iz qoldirgan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu asrda an`anaviy islom ta`lim muassasalari bo`lgan madrasalar yangi siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitga moslashish zarurati bilan yuzlashdi. Ushbu jarayonni tadqiq etish mintaqaning ma`naviy-ma`rifiy merosi evolyutsiyasini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Qo`qon shahrida joylashgan Kamol-Qozi madrasasi ana shunday yodgorliklardan biri bo`lib, 1909–1910-yillarda qurilgan. U Farg`ona vodiysi me`morchilik an`analarning so`nggi yirik namunalari qatoriga kiradi. Madrasa o`z nomini mahalliy nufuzli qozi va olim Kamol-Qozidan olgan bo`lib, u nafaqat diniy arbob, balki davrining taniqli ma`rifatparvar shaxslaridan biri edi [1]. Sovet davrida madrasa yopildi va bino turli maqsadlarda ombor, turar joy, ma`muriy binolar sifatida — foydalanildi. Mustaqillik yillarida esa madrasa yangicha ma`noda — madaniy meros obyekti sifatida qayta tiklandi va jonlantirildi.

Adabiyotlar tahlili. Kamol-Qozi madrasasining ma`naviy markaz sifatidagi o`rni, mahalliy kadrlar tayyorlashdagi roli hamda madaniy merosni rivojlantirishdagi hissasi haqida bir qator tarixchi va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abdullayevning *“Qo`qon madrasalar tarixi”* nomli kitobining 3-bobi Kamol-Qozi madrasasini har tomonlama — tarixiy, me`moriy va ijtimoiy jihatdan kompleks o`rganishga bag`ishlangan. Ushbu bo`limda Kamol-Qozining tarixiy portreti, uning Qo`qon jamiyatidagi mavqe va nufuzi, madrasa qurilish jarayoniga qo`shgan hissasi hamda ilm-fanni rivojlantirishdagi faoliyati yoritib berilgan [1]. berilgan [1]. Yo`ldashev ham o`z tadqiqotlarida Kamol-Qozi madrasasining Qo`qon xonligi davridagi o`rni va ta`lim tizimidagi ahamiyatiga e`tibor qaratgan [2].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot metodologiyasi madrasalarni o`rganishga bag`ishlangan mavjud ilmiy izlanishlarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy hodisalar xronologiyasi, tizimli-tahliliy yondashuv, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-tipologik tasniflash usuli, struktural-funksional tahlil kabi ilmiy metodlar qo`llanildi. Qiyosiy tahlil metodlari orqali Kamol-Qozi madrasasi boshqa mintaqaviy madrasalar bilan solishtirib o`rganildi. Tarixiy-tipologik usul

madrasaning struktura va funksional xususiyatlarini tasniflashda qoʻl kelgan boʻlsa, struktural-funksional yondashuv taʼlim muassasasi sifatida madrasaning tizimiy mohiyatini aniqlashga imkon berdi.

Natijalar. Oʻtkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: 1915-yilga kelib Kamol-Qozi madrasasida 68 nafar talaba tahsil olgan boʻlib, ulardan 42 nafari mahalliy aholiga, 26 nafari esa boshqa viloyatlardan kelgan talabalar hisoblangan [5]. Talabalarga dars bergan asosiy oʻqituvchilar soni 5 nafar, yordamchi oʻqituvchilar 2 nafar, shuningdek 1 nafar kutubxona mutavallisi faoliyat yuritgan [1]. Madrasa tasarrufida 18 gektar yer, 10 ta savdo doʻkoni va 1 ta karvonsaroy mavjud boʻlgan [5]. 1913-yilda madrasa yillik daromadi 1450 soʻmni tashkil etgan boʻlib, uning 520 soʻmi talabalar ehtiyoji uchun, 380 soʻmi esa oʻqituvchilar maoshiga sarflangan. Madrasa mahalliy madaniyat rivojiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan, unda adabiy muhit shakllangan, ilmiy munozaralar oʻtkazilgan, xattotlik va amaliy sanʼat rivojlantirilgan [2]. Madrasaning taʼlim jarayonida anʼanaviy va zamonaviy yondashuv uygʻunligi kuzatilgan, kichik hajmdagi, ammo samarali oʻquv tizimi shakllangan. Hozirgi kunga kelib madrasaning 75 foizi original holatda saqlanib qolgan boʻlib, 2000-2018-yillar davomida u kapital taʼmirdan oʻtkazilgan [2].

Muhokama. Tadqiqot natijalari Kamol-Qozi madrasasining nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy darajadagi ahamiyatga ega yodgorlik ekanini koʻrsatadi. Binoning ikki qavatli, 28 hujrali tuzilishi oʻrta hajmdagi klassik madrasalarga xos xususiyatdir. Ganchkorlik, yogʻoch oʻymakorligi va bezak sanʼati elementlarining saqlanishi mahalliy meʼmoriy anʼanalarning mustahkamligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, binoning faqat 75 foizi original holatda saqlangani keng qamrovli restavratsiya zaruriyatini koʻrsatadi [3]. Madrasaning oʻquv dasturida diniy fanlarning 55 foiz, dunyoviy fanlarning 35 foiz va amaliy fanlarning 10 foiz ulushga ega boʻlgani jadidchilik taʼsirini koʻrsatadi. Bu oʻsha davr uchun progressiv yondashuv sifatida baholanadi [1]. Biroq hozirgi kunda madrasa bir qator muammolarga duch kelmoqda: binoning qisman yemirilishi, original hujjatlarning yoʻqolishi va obyektning zamonaviy

talablarga moslashtirishdagi qiyinchiliklar shular jumlasidan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan restavratsiya, raqamli arxiv yaratish, adaptiv foydalanish dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Ushbu choralar madrasaning saqlanishi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi [5].

Xulosa. Kamol-Qozi madrasasining zamonaviy jamiyatdagi o'rni uni nafaqat tarixiy yodgorlik, balki tirik madaniy institut sifatida namoyon etadi. Uning madaniy meros sifatidagi qadriyati faqat o'tmish bilan cheklanib qolmay, hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Madrasa qurish qarorining o'zi ham xayriya emas, balki uzoqni ko'ra bilgan ijtimoiy fikr va ma'naviy mas'uliyat mahsuli bo'lganini ko'rsatadi. Madrasaning ijtimoiy ta'siri keng qamrovli bo'lib, uning faoliyati nafaqat ta'lim sohasi bilan chegaralanmasdan, mahalliy iqtisodiyotga ham sezilarli hissa qo'shgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Abdullayev M. (2015). *Qo'qon madrasalar tarixi*. Toshkent: Fan. – B.166–185.
- [2] Yo'ldashev A. (2019). *Qo'qon xonligi ma'rifat markazlari*. Toshkent: Akademnashr. – B.91–120.
- [3] Hakimov N. (2018). *Farg'ona vodiysi madaniy merosi*. Farg'ona: Farg'ona nashriyoti. – B.61–85.
- [4] Mahmudov M. (2022). *XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda madaniy meros masalalari (Davr matbuoti materiallari asosida)*. Qarshi. ☞ B.15☞36.
- [5] Rahimov S. (2020). “XX asr boshlarida Qo'qon madrasalari.” *O'zbekiston tarixi* jurnali, №3.
- [6] Karimov Z. (2017). *O'rta Osiyo madrasalarida ta'lim tizimi va uning rivojlanish bosqichlari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- [7] Rasulov H. (2016). *Farg'ona vodiysi shaharsozligi va me'morchilik yodgorliklari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- [8] Vohidov A. (2014). *O'zbekistonda islom ta'limi tarixi*. Buxoro: Buxoro nashriyoti.